



ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 04.10.2022 г. № 178-2-41-ОВ/2022

между MEGA TRADE BUSINESS CAPITAL MCHJ и Шофиркон туман Ободонлаштириш бошкармаси на общую сумму 3 012 000

Глава 110
Казначейский лицевой счёт 100022860062587065200110003

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4252110			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь	3 012 000,00			3 012 000,00
Декабрь				
Всего за год	3 012 000,00			3 012 000,00

Всего 3012000 сум

Уч миллион ун икки минг сум 00 тийин

сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 903600 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в Ноябрь мес. 2022 г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2-х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____% , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)



Руководитель заказчика
Главный бухгалтер заказчика
Принял работник казначейского подразделения _____
(подпись)

_____ (подпись)
Якубов Халим Махмудович
Ф.И.О.

_____ (подпись)
Аъзамов Исок Камолович
Ф.И.О.

Получил работник заказчика _____
(подпись)

«__» _____ 20__ г.

«__» _____ 20__ г.

OLDI-SOTDI SHARTNOMASI

4«10»2022 yil.

178-2-41-OB/2022-son

MEGA TRADE BUSINESS KAPITAL MCHJ (keyingi o‘rinlarda “Sotuvchi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi, asosida ish yurituvchi **direktori O.Ochilova** bir tomondan va **Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi** (keyingi o‘rinlarda “Sotib oluvchi” deb yuritiladi), o‘zining nizomi asosida ish yurituvchi **rahbari H.Yakubov** ikkinchi tomondan mazkur shartnomani quyidagilar haqida tuzdilar:

1. SHARTNOMANING PREDMETI

1.1. Mazkur shartnomaga asosan Sotuvchi sotib oluvchiga quyida ko‘rsatilgan miqdor va narxda tovar (mahsulot) yetkazib berish majburiyatini oladi, Sotib oluvchi esa o‘z navbatida tovarni (mahsulotni) qabul qilib olib haqqini to‘lash majburiyatini oladi:

№	Tovar (Mahsulot) nomi	O‘lchov birligi	Soni	Narxi	Bahosi
1	Фланцевый адаптер	dona	24	125 500	3 012 000
	J a m i	dona	24	125 500	3 012 000

1.2 Mazkur shartnomaga asosan yuqoridagi jadvalda ko‘rsatilgan tovar (mahsulot)ni yetkazib berish muddati: 2022-yil 15-dekabrgacha.

2. TO‘LOV SHARTLARI

2.1. Ushbu shartnomaning umumiy summasi **3 012 000 (Uch million o‘n ikki ming)** so‘mni tashkil etadi.

2.2. Sotib olinadigan Tovar (mahsulot) uchun **oldindan to‘lov miqdori 903 600 so‘mni**, ya‘ni belgilangan summaning **30 foizini tashkil qiladi** va bu oldindan to‘lov 2022-yilning noyabr oyida amalga oshiriladi. **Yakuniy to‘lovning miqdori esa 2 108 400 so‘mni**, ya‘ni kelishilgan summaning **70 foizini tashkil etadi** va bu yakuniy to‘lov hisob-faktura (yoki ishlar bajarilganligini tasdiqlovchi hujjat) taqdim qilingandan so‘ng joriy moliya yili davomida amalga oshiriladi.

2.3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-avgustdagi 241-sonli qarorining 1.1. bandida "Budget tashkilotlari va budget mablag‘lari oluvchilarning tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) xarid qilish bo‘yicha summasi bir milliard so‘mgacha tuziladigan shartnomalarida 30 foiz miqdorida oldindan to‘lovni amalga oshirish nazarda tutilgan".

2.4. To‘lov shakli **naqd pulsiz pul ko‘chirish yo‘li** bilan amalga oshiriladi.

3. TARAFLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

3.1. Sotuvchining huquqlari:

- sotilgan tovar haqqini to‘lashni;
- tovarni o‘z vaqtida qabul qilib olishni;
- shartnoma shartlariga to‘liq rioya etishni;

- sotib oluvchi tomonidan o'ziga yetkazilgan zararlarning qoplanishini talab qilish.

Sotib oluvchi qonun hujjatlarida belgilangan asoslarsiz mahsulot yetkazib beruvchi sotuvchidan tovarni qabul qilib olmagan yoki tovarni rad etgan hollarda mahsulot yetkazib beruvchi-sotuvchi sotib oluvchidan tovar haqini to'lashni talab qilishga haqli.

3.2. Sotuvchining majburiyatlari:

- tovarni sotib oluvchiga mulk qilib topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirish;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirish;
- uchinchi shaxslarning har qanday huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirish;
- shartnomada nazarda tutilgan tovarni sotib oluvchiga idishda yoki o'ralgan holda topshirish;
- tovarni sotib oluvchiga topshirgunga qadar saqlash.

3.3. Sotib oluvchining huquqlari:

- sotib olayotgan tovarni o'ziga mulk qilib topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan miqdordagi tovarni topshirishni;
- shartnomada ko'rsatilgan sifatdagi tovarni topshirishni;
- uchinchi shaxslarning huquqlaridan holi bo'lgan tovarni topshirishni talab qilish.

3.4. Sotib oluvchining majburiyatlari:

- sotib olgan tovar haqini o'z vaqtida to'lash;
- tovarni o'z vaqtida qabul qilib olish;
- shartnoma shartlariga to'liq rioya etish;
- sotuvchiga yetkazilgan zararni qoplash.

Sotib oluvchi shartnomaning tovarlar miqdori, sifati, idishi va o'ralishi to'grisidagi shartlari buzilganligi haqida sotuvchiga o'n kun muddat ichida malum qilishi shart.

4. TOVARLARNI YETKAZIB BERISH TARTIBI

4.1. Tovarlar tomonlar kelishuviga ko'ra sotib oluvchining omboriga yetkazib beriladi.

4.2. Yetkazib beruvchi tovarlarni maxsus himoyalangan idishlarda yetkazib beradi

4.3. Tovarni topshirish, qabul qilish joyi sotib oluvchining ombori hisoblanadi.

4.4. Tovarni topshirish muddati avans to'langan kundan boshlab 5 ish kunini tashkil qiladi.

4.5. Sotib oluvchiga yetkazib berilgan mahsulot uchun barcha tegishli hujjatlarni taqdim etgan holda hisob- varaqni rasmiylashtirish sanasi sotib oluvchi tomonidan tovarlarni qabul qilish kuni hisoblanadi.

4.6. Ushbu shartnomaning barcha shartlari kalendar kunidan keyingi kun yoki muddat boshlanishini aniqlagan voqea sodir bo'lgan kundan boshlab hisoblanadi.

5. SHARTNOMAGA O'ZGARTIRISH VA QO'SHIMCHALAR KIRITISH

5.1. Shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish u qaysi tartibda tuzilgan bo'lsa shu tartibda amalga oshiriladi.

5.2. Shartnomada ko'rsatilmagan shartlar amaldagi Fuqarolik kodeksi talablariga rioya qilingan holda belgilanadi va qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda shartnoma qayta tuzilishi yoki o'zgartirilishi mumkin.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. «Xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi» to'grisidagi Qonuni va ushbu shartnomaga asosan hal qilinadi.

6.2. Tovarni to'liq topshirmaganlik uchun Sotuvchi har bir kechiktirilgan kuniga topshirilmagan tovar qiymatining 0,5 % miqdorida penya to'laydi, biroq bunda penyaning umumiy summasi yetkazib berilmagan tovarlar bahosining 50 foizidan oshib ketmasligi lozim.

6.3.Sifati bo'yicha shartnoma shartlariga javob bermaydigan tovarni topshirganlik, shuningdek butlanmagan tovarni topshirganlik uchun aybdor taraf tovar qiymatining 20% miqdorida jarima to'laydi:

6.4.Tovar haqini o'z vaqtida yoki to'liq to'lamaganlik uchun Sotib oluvchi har bir kechiktirilgan kuniga to'lanmagan summaning 0,4 % miqdorida, lekin ushbu summaning 50 % dan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

6.5.Penya va jarimalarni to'lash taraflarni shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishdan ozod qilmaydi.

7.SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

7.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Budget Kodeksining 122-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 28-fevraldagi 594-sonli qarorining 6-bandiga asosan budget tashkilotlarining tovarlar (ishlar, xizmatlar) yetkazib beruvchilar bilan shartnomalari, shuningdek buyurtmachilarning Davlat budjeti mablag'lari hisobiga kapital qurilishga oid shartnomalari majburiy tartibda G'aznachilikda ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va **2022-yil 31-dekabr gacha amal qiladi.**

7.2.Mazkur shartnoma ikki nusxada tuzilib, bir xil yuridik kuchga ega hisoblanadi va tomonlarning har biri uchun bir nusxadan beriladi.

7.3. Shartnoma muddatidan oldin quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

-tomonlarning kelishuviga muvofiq;

-O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda.

8.FORS-MAJOR HOLATLARI

8.1 Tomonlarga bog'liq bo'lmagan, oldindan oldini olish mumkin bo'lmagan holatlar shu jumladan e'lon qilingan fuqarolik urushi, epidimiyalar, blokadalar, embargolar, zilzilalar, toshqinlar, yong'inlar, shuningdek davlat organlari tomonidan qabul qilingan qarorlar, farmonlar, tegishli hujjatlar bilan tasdiqlangan holatda majburiyatlarni bajarmaganligi uchun tomonlar javobgarlikdan ozod qilinadi.

8.2. Taraflar o'zlariga bog'liq bo'lmagan holatlarda majburiyatlarni bajara olmasalar, ushbu holat yuzaga kelgan vaqtdan 3 kun ichida boshqa tarafni yozma ravishda ogohlantirishi kerak.

9.KORRUPSIYAGA QARSHI QO'SHIMCHA SHARTLAR

9.1.Shartnomaning taraflari, ular tomonidan jalb qilinadigan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tanlanishi lozim.

9.2.Shartnomaning tarafi va u tomonidan jalb qilingan shaxslar (yordamchi pudratchi tashkilotlar, agentlar va taraflar nazorati ostidagi boshqa shaxslar) tomonidan korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarga rioya etilmaganda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 14-sentabrdagi PF-6313-sonli Farmonidan kelib chiqib ikkinchi taraf shartnomani bir taraflama to'xtatib turishga, bekor qilishga hamda zararni qoplab berishni talab qilishga haqli bo'ladi.

10.NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

10.1. Taraflar o'rtasida kelib chiqadigan nizolar o'zaro kelishuv asosida, agar taraflar kelisha olmasalar, bu borada yuzaga kelgan nizolar O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuni va Fuqarolik kodeksiga asosan iqtisodiy sud tartibida hal qilinadi.

11 TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

«SOTUVCHI»

MEGA TRADE BUSINESS KAPITAL MCHJ

(Tovar yetkazib beruvchining yoki xizmat ko'rsatuvchining nomi)

Manzil: Buxoro viloyati Jondor tumani,
Tel./faks +998941213373
h/v 20208000805539754001

Bank nomi: Xalq bank Jondor filiali
MFO 00671
OKONX 46900
STIR 309654833

«SOTIB OLUVCHI»

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi

(budjetdan mablag' oluvchi tashkilotni nomi)

Manzil: Shofirkon tuman Mirzoqul MFY
Tel./faks 50-2-33-39

sh/h* 100022860062587065200110003
budjetdan mablag' oluvchi STIR: 201114223
OKONX: 90211

G'aznachilik bo'linmasi nomi: Shofirkon tuman
bo'yicha G'aznachilik

G'azna h/v: 23402000300100001010

Bankning nomi: Toshkent sh. Markaziy bank

MFO: 00014

G'aznachilik bo'linmasi STIR 201122919

Rahbar

O. Ochilova

Rahbar

H. Yakubov



	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiylikini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	XALIM YAKUBOV MAXMUDOVICH
	Imzolangan sana	4 OKT 2022 16:37
	Hujjat kodi	OD4373314077
	Hulosa kodi	BM2002230060

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA

Y U R I D I K X U L O S A

1. Loyi haning turi: Shartnoma.
2. Loyi haning nomi. Oldi-sotdi shartnomasi.

Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi va "MEGA TRADE BUZINES KAPITAL" MChJ o'rtasidagi 3.012.000 so'mlik 24 dona flanseyiy adapter oldi-sotdisi to'g'risidagi shartnoma.

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot. Shofirkon tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 2022-yil 29-sentabr sanasida ishlab chiqilgan va markazga yuridik xulosa uchun taqdim etilgan.

Loyiha tuman obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan taqdim etilgan ilova hujjatlari asosida ko'rib chiqildi.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Markaz bosh yuriskonsulti



N.Hamroyev